

rivojlanish yuqori noaniqlik va kapital talabchanlik bilan tavsiflanishiga qaramay, moliyaviy barqarorlikni ta'minlagan holda amalga oshirilgan investitsiyalar korxonaning strategik ustunligini mustahkamlaydi, uning bozor qiymatini oshiradi va uzoq muddatli o'sish trayektoriyasini barqarorlashtiradi. Natijada, korxonalar darajasida innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish milliy iqtisodiyotning texnologik modernizatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim institutsional omiliga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Modigliani F., Miller M. *The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment // American Economic Review.* – 1958. – Vol. 48. – No. 3. – P. 261–297.
- [2] Myers S., Majluf N. *Corporate Financing and Investment Decisions When Firms Have Information that Investors Do Not Have // Journal of Financial Economics.* – 1984. – Vol. 13. – P. 187–221.
- [3] Aghion P., Howitt P. *Endogenous Growth Theory.* – Cambridge: MIT Press, 1998.
- [4] Gompers P., Lerner J. *The Venture Capital Cycle.* – Cambridge: MIT Press, 1999.
- [5] Altman E. *Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // Journal of Finance.* – 1968. – Vol. 23. – P. 589–609.

BANKLARDA RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOLIYA BOZORI BARQARORLIGI VA INVESTORLAR FAOLLIGIGA TA'SIRI

Hakimova Nargiza

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktorant

Moliya bozori barqarorligi har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Bank tizimi esa bu barqarorlikning asosiy tayanchi bo'lib, uning samarali ishlashi iqtisodiy o'sish va investorlarning ishonchini ta'minlaydi. So'nggi yillarda global va mahalliy moliya bozorlari sharoitida banklarda yuzaga kelayotgan kredit, likvidlik va bozor risklari tizimning barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, banklarda risklarni baholash va boshqarish tizimlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy bank amaliyotida risk-menejment tizimini takomillashtirish jarayonida an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda bozor sharoitidagi o'zgarishlar hamda investorlar talablari ham muhim omil sifatida baholanishi kerak. Shunday tizim moliya bozori barqarorligini oshiradi va

investorlar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, banklarda risk-menejment strategiyalarini samarali joriy etish moliya tizimining barqarorligini oshirish va potentsial yo'qotishlarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.⁸⁷ Shu sababli, risklarni kompleks baholash va samarali boshqarish tizimlarini rivojlantirish hozirgi sharoitda iqtisodiy zaruratga aylanmoqda. Mazkur natijaga erishish borasida bank risklarini tizimlashtirish, amaldagi risk-menejment tizimlari tahlil qilinib hamda risklarni boshqarish samaradorligi va investorlar faolligi o'rtasidagi bog'liqlik baholanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston bank tizimida risklarni baholash va boshqarish mexanizmlari mavjud bo'lsa-da, ularning samaradorligi yetarli darajada tizimli emas. Samarali risklarni boshqarish tizimi standart indikatorlar bilan cheklanmay, bozor o'zgarishlari, investorlar talablari va bank ichki jarayonlarini ham inobatga olishi kerak. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy regulyatsiya samarali ravishda ichki likvidlik va risk boshqaruvini mustahkamlash orqali kichik va o'rta banklarda likvidlik riskini kamaytiradi, bu esa muhim moliya barqarorligi omili hisoblanadi.⁸⁸ Shu tarzda yaratilgan kompleks risk-menejment tizimi investorlar uchun ishonchli signal beradi va ularning kapitalini bozorga jalb qilish imkoniyatini oshiradi. Amaliy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, banklarda risklarni samarali boshqarish darajasi moliya bozori barqarorligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Masalan, kredit riskini baholash va kafolatlash mexanizmlarini takomillashtirgan banklarda investorlar kapitalining oqimi 15–20% ga oshganligi kuzatilgan. Shu asosda, banklarda risklarni tizimli baholash va monitoring qilish, shaffof moliyaviy hisobotlarni taqdim etish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish investorlar faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) asosida kredit hamda bozor risklarini oldindan prognoz qilish mexanizmlarini joriy etish banklarning barqarorligini sezilarli darajada oshiradi. Xalqaro moliyaviy institutning so'nggi hisobotida O'zbekiston banklarida risk-asosli nazorat tizimi joriy etilishi va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha strategik qadamlar barqaror bank nazorati va moliya tizimi mustahkamligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekani qayd etildi.⁸⁹

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, kompleks risk-menejment tizimi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va investorlar ishonchini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Risklarni tizimli boshqarish moliyaviy yo'qotishlar xavfini kamaytiradi,

⁸⁷ Qin, Y. (2023). *Banks and Financial Institutions: Assessment of Risk Management Strategies*. Highlights in Business, Economics and Management.

⁸⁸ Author(s). (2025). *Financial regulation and liquidity risk of small and medium-sized banks*. *Finance Research Letters*, 81, 107461.

⁸⁹ International Monetary Fund. (2025). *Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program – Detailed Assessment of Observance – Basel Core Principles for Effective Banking Supervision*

aktivlar sifatini yaxshilaydi va bank tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Bank risklarni baholashda an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda bozor indikatorlari va investorlar kutilmalarini integratsiya qilish;
2. Risklarni doimiy monitoring qilishning raqamlashtirilgan va avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish;
3. Sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari asosida kredit va bozor risklarini prognozlash mexanizmlarini rivojlantirish;
4. Risk-menejment natijalari bo'yicha shaffof axborot siyosatini kuchaytirish orqali investorlar uchun ochiqlik darajasini oshirish;
5. Risk-asosli nazorat tamoyillarini keng joriy etish orqali bank nazorati samaradorligini oshirish.

Ushbu chora-tadbirlar amaliyotga tatbiq etilgan taqdirda, O'zbekiston bank tizimida risklarni boshqarish sifati yangi bosqichga ko'tariladi, moliya bozori barqarorligi mustahkamlanadi hamda investorlarning ishonchi va faolligi sezilarli darajada oshadi. Shu tariqa, banklarda risk-menejment tizimini takomillashtirish nafaqat mikro darajadagi, balki makroiqtisodiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiluvchi muhim ilmiy va amaliy yo'nalish sifatida baholanishi mumkin.

KORPORATIV TUZILMALARDA AKSIYALARNI SPLITLASH AMALIYOTI

Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

Adxamjonov Shoxbozbek Bobirjon o'g'li

TDIU Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrasida assistenti

Bugungi kunda jahon moliya bozorida qimmatli qog'ozlar yordamida kapital jalb qilish keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanib, Qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish Amerika qo'shma shtatlarida va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni moliyalashtirishning asosiy usuli hisoblanadi. Bunda kompaniyalar qimmatli qog'ozlar muomalaga chiqaradi va kapital jalb qilish uchun ularni bozorda sotadi⁹⁰. Korporativ tuzilmalar muomalaga qimmatli qog'ozlar emissiya qilish bilan bir qatorda, ularni splitlash (bo'lish) orqali ham jalb qilinayotgan kapitalning samaradorligini oshirishlari mumkin. Aktsiyalarni splitlash aktsiyalar uchun to'lanadigan dividendlar bilan bir xil tushinchadir, farqli jihati shundan iboratki splitlashda foiz o'rniga nisbat sifatida ifodalanadi. Korporativ tuzilma tomonidan aksiyani bo'linish to'g'risida aksiyadorlar umumiy yig'ilishida e'lon qilinganda, har bir ulush qo'shimcha aktsiyalarni yaratish uchun

⁹⁰ S.E.Elmirzayev va boshqalar Moliya bozori. Darslik. – Toshkent "Iqtisod-Moliya" - 2019 10 b